

TEXNOLOGIYA FANIDA QO'LLANILAYOTGAN ZAMONAVIY METODLAR

Asqarova Shohida Baxtiyor qizi

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika Universiteti
Professional ta'lim va san'at fakulteti 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya fanining ta'lim jarayonidagi qo'llanilayotgan zamonaviy metodlarning ahamiyati, uning rivojlanish bosqichlari, ta'limda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning samaradorligi hamda o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, texnologiya fanida qo'llanilayotgan zamonaviy metodlarga — STEM ta'limi, loyihaviy faoliyat, raqamli resurslar, robototexnika, qo'l mehnati bilan yasaladigan zamonaviy aksesuarlar hamda, axborot texnologiyalarining o'rni misollar asosida tahlil qilingan. Maqola yakunida texnologiya ta'limini yanada rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'z: *Texnologiya ta'limi, zamonaviy metodlar, innovatsion o'qitish, STEM, loyihaviy faoliyat, robototexnika, qo'l mehnati bilan yasaladigan aksesuar buyumlar, axborot texnologiyalari, kasbiy ko'nikma, kreativ fikrlash, ta'lim sifati.*

Kirish:

Bugungi globallashuv davrida barcha sohalarda texnologik jarayonlar keskin rivojlanmoqda. Ta'lim tizimida ham zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, o'quv jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalaga aylangan. Texnologiya fani nafaqat o'quvchilarda mehnat madaniyatini shakllantiradi, balki ularga real hayotga mos bo'lgan amaliy ko'nikmalarni beradi.

Zamonaviy texnologiya ta'limi bugungi o'quvchining kelajakdagi kasb tanlovi, ijodkorligi, mustaqil fikrlashi va tadbirkorlik kompetensiyalarining shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Shu sababli texnologiya fanini rivojlantirish, uni yangi texnologiyalar bilan boyitish, har bir darsni amaliy jihatdan kuchaytirish davr talabi hisoblanadi.

Ushbu maqolada texnologiya fanining bugungi holati, rivojlanish yo'nalishlari, texnologik yondashuvlar va fanni takomillashtirishning istiqbollari yoritiladi.

Asosiy qism:

Texnologiya faning dolzarbligi.

Texnologiya fani o'quvchilarni kundalik turmushga, ishlab chiqarish jarayonlariga va kasbiy faoliyatga tayyorlaydigan eng muhim fanlardan biridir. Dunyo tez rivojlanayotgan

bir paytda yoshlarning texnik savodxonligi, amaliy bilimi va kreativ yondashuvi muhim sanaladi. Texnologiya darslarida o'quvchilar:

mehnat jarayonlarini o'rganadi, materiallar bilan ishlashni bilib oladi,

sodda konstruksiyalar yaratadi, texnik xavfsizlik qoidalariga amal qilishni o'rganadi, kasbga yo'naltiriladi, zamonaviy qo'l mehnati orqali tadbirkorlik bilan shug'ullansa ham bo'ladi. Bu jarayon ularni nafaqat ta'lim olishga, balki hayotga tayyorlaydi.

Texnologiya faning maqsadi. Texnologiya fanining asosiy maqsadlari:

O'quvchilarda texnik tafakkurni rivojlantirish. Amaliy ish bajarishga o'rgatish

Mehnat jarayonini rejalashtirish ko'nikmasini shakllantirish. Kasbga yo'naltirish

Innovatsion fikrlashni rivojlantirish. Zamonaviy metodlar sababli o'z tadbirkorligini boshlab, jahon bozorlariga qo'l mehnati orqali yasagan buyumlarini olib chiqish mumkin. Fan bugungi o'quvchilarning qiziqishlariga mos bo'lishi uchun texnologiyalar bilan boyitilishi zarur.

Texnologiya faning vazifalari:

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish. Materiallar bilan ishlash texnologiyalarini o'rgatish, Asbob-uskunalardan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini berish. Tasviriy, konstruktiv va amaliy faoliyatni rivojlantirish

Mahsulot yaratish bosqichlarini o'rgatish. Kichik loyihalar tayyorlashni yo'lga qo'yish. Qo'l mehnati bilan yasalgan buyumlarni omalashtirish

Texnologiya fani – bu nazariya emas, amaliyotga asoslangan fan.

Zamonaviy yondashuv:

STEM ta'limi: STEM texnologiya fanida o'quvchining ilmiy-texnik fikrini rivojlantiradi. Egizak modellar, konstruksiyalar, tajribalar orqali o'quvchida o'rganishga qiziqish ortadi. Loyihaviy ta'lim

O'quvchi o'zi mustaqil yaratgan mahsulotni loyihalashtiradi:

yog'ochdan buyum, to'qimachilik ishlari, maketlar.

Robototexnika: Hozirgi maktablarda kichik robotlar, Lego konstruktorlari, Arduino modullari orqali bolalarda muhandislik fikri shakllanadi.

Axborot texnologiyalari: 3D modellashtirish, prezentatsiya, grafik dizayn texnologiya fanini zamonaviylashtiradi.

Qo'l Mehnati: Texnologiyalar rivojlangan bir vaqtda

Munchoqlardan zamonaviy abadok, tika, deadema, karona, tillaqosh kabi aksessuarlar yasash, Undan tashqari munchoqlardan sumkalar, suniy gul yasashi o'rganishadi.

Amaliy ishlar. Texnologiya darslarida o'quvchi quyidagi amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi: Yog'och, metal, mato bilan ishlash, tikuvchilik, naqshchilik

aksesuar uchun ishlatiladigan sim bilan ishlash, ambir bilan ishlash texnikasi

xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, amaliy ishlar o‘quvchining: diqqatini, mas’uliyatini, aniqligini, ijodga bo‘lgan qiziqishini, mustaqilligini rivojlantiradi.

Rivojlantirish muammolari. Hozirda texnologiya fanida quyidagi muammolar mavjud: Ustaxonalarning yetishmasligi, asbob-uskunalar yetishmasligi, darslarning nazariyaga ko‘proq yo‘nalishi

darslarni zamonaviy emas, eski uslubda qo‘llanilishi, o‘qituvchilarning malakasi yetarli bo‘lmisligi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun yangicha yondashuv talab etiladi.

Talab va takliflar:

1. Ustaxonalarni zamonaviy jihozlash
2. IT texnologiyalarini keng joriy etish
3. Amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish
4. O‘quvchilarning individual loyihalarini qo‘llab-quvvatlash
5. O‘qituvchilar uchun muntazam seminar-treninglar o‘tkazish
6. Robototexnika bo‘limlarini rivojlantirish
7. 3D printerlar, lazer kesish moslamalarini maktablarga joriy etish
8. Zamonaviy qo‘l mehnatiga urg‘u berish, hamda fan sifatida yondashuv
9. Ixtidorli o‘quvchilarni aniqlas va ustoz shogirt ananalarini targ‘ib qilish

Bu takliflar texnologiya fanining sifatini oshiradi.

XULOSA. Texnologiya fanini zamonaviy metodlar orqali rivojlantirish bugungi ta’limning eng dolzarb masalalaridan biridir. Texnologiyalar qanchalik rivojlanmasin, o‘quvchi amaliy tajribaga ega bo‘lmis ekan, o‘rgangan bilimlari yetarli bo‘lmaydi. Shu sababli texnologiya fanini modernizatsiya qilish, zamonaviy asbob-uskunalar bilan boyitish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish — yoshlarning kelajagi uchun muhimdir. Yuqorida takitlab o‘tkanimdek o‘quvchilarning orasidan ixtidorli yoshlarni aniblab, ularni qo‘llab quvvatlashga qaratilsin. Texnologiya fanini rivojlantirish orqali kelajakdagi muhandislar, dizaynerlar, texnik mutaxassislar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini raqamlashtirish” bo‘yicha qarorlari. — Toshkent, 2021.
3. G‘oziev E. O‘zbekiston maktablarida texnologiya ta’limi metodikasi. — Toshkent: Fan, 2020.

4. STEM Education Journal. Impact of STEM on Student Motivation and Creativity. — 2021.

5. UNESCO Report. Digital and Technology Education Development. — 2020.

6. O‘zbekiston Milliy Kutubxonasi Elektron bazasi: Texnologiya ta’limi bo‘yicha metodik qo‘llanmalar.